



## THE SEMANTIC EVOLUTION OF ARCHAIC GERMAN PHRASEOLOGISMS

Rahmatullayeva Dilrabo

Intern teacher at the Uzbekistan State World Languages University

@Mail-dilrabo\_rahmatullayeva@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17493688>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> October 2025

Online: 31<sup>st</sup> October 2025

### KEYWORDS

Phraseologism, archaic, semantic evolution, metaphor, phrase, phraseological transformation, linguoculturology

### ABSTRACT

*This article analyzes the semantic development of historically formed phraseologisms in German, but rarely used today. Language - as the main indicator of changes in culture and thinking-manifests shifts in the form and content of phraseological units. The article shows that archaic phrases from religious, folkloric and social sources are semantically losing their meaning and gaining new connotations or leaving the scope of full active use.*

## NEMIS TILIDAGI ARXAIK FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK EVOLYUTSIYASI

Rahmatullayeva Dilrabo

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti stajyor-o'qituvchisi

@Mail-dilrabo\_rahmatullayeva@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17493688>

### ARTICLE INFO

Received: 26<sup>th</sup> October 2025

Accepted: 30<sup>th</sup> October 2025

Online: 31<sup>st</sup> October 2025

### KEYWORDS

Frazeologizm, arxaik, semantik evolyutsiya, metafora, ibora, frazeologik transformatsiya, lingvokulturologiya.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada nemis tilidagi tarixan shakllangan, lekin bugungi kunda kamdan-kam qo'llaniladigan frazeologizmlarning semantik rivojlanishi tahlil qilinadi. Til- madaniyat va tafakkurdagi o'zgarishlarning asosiy ko'rsatkichi sifatida-frazeologik birliklarning shakl va mazmundagi siljishlarni namoyon etadi. Maqolada diniy, folklorik va ijtimoiy manbalardan olingan arxaik turg'un iboralarning semantik jihatdan o'z ma'nosini yo'qotib, yangi konnotatsiyalarga ega bo'layotgani yoki to'liq faol ishlatish doirasidan chiqib ketayotgani ko'rsatiladi.*

### KIRISH

Tilning frazeologik tizimi milliy ong va madaniyatning o'zgaruvchan qatlami sifatida muhim o'rin tutadi. Har bir tarixiy davrda frazeologizmlar insonning dunyoqarashi, diniy tushunchalari, ijtimoiy hayoti va axloqiy qadriyatlarini ifoda etgan. Ammo vaqt o'tishi



bilan bu birliklarning semantik yadrosi o'zgaradi: ma'no kengayadi, torayadi yoki butunlay yangicha mazmun kasb etadi.

Nemis tilidagi frazeologik birliklar – tildagi tarixiy, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarning tirik guvohi hisoblanadi. Bunga yorqin misol sifatida: Injildan, xalq og'zaki ijodi va qadimgi urf-odatlardan kelib chiqqan iboralar hozirgi til tizimida boshqa semantik funksiyalarda qo'llanilmoqda. Shu jihatdan, tarixiy va arxaik frazeologizmlarning semantik evolyutsiyasini o'rganish tilshunoslikda, shu bilan birga lingvokulturologiyada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Iboralar til evolyutsiyasining noaniq, ammo eng jonli ko'rsatkichidir. Ular ijtimoiy qadriyatlar, tenologik yangililar, madaniy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda o'zgarib boradi.

## **METODOLOGIYA**

Tarixiy-etimologik tahlil- frazeologizmlarning kelib chiqishi manbalarini aniqlash, semantik- komponent tahlil - iboraning dastlabki va hozirgi ma'nolaridagi asosiy semantik birliklarni, qiyosiy va korpus tahlili hamda zamonaviy matn tahlilida Duden.de, Langenscheidt Großwörterbuch, Focus.de, Logo-buch.de kabi yana boshqa manbalardan foydalanildi.

## **ASOSIY QISM**

Frazeologik birliklar tarixan o'z davrining dunyoqarshini ifoda etgan. Ularning semantik o'zgarishi, odatda, diniy-mifologik asosdan kundalik psixologik va ijtimoiy ma'nolarga siljish orqali amalga oshgan. Quyidagi arxaik frazeologizmlarning tahlili keltirilgan.

1. *Jemandem den Hof machen*<sup>1</sup> - frazeologizmining kelib chiqishi XVII asrlarga borib taqaladi va fransuz tilidagi "Faire la cour à quelqu'un"ning tarjimai sifatida olingan. Tarixiy ma'nosi "kimnidir yoqtirish, e'tibor ko'rsatish, xushomad orqali e'tiboriga tushmoq va sevgi izhor qilish" edi. Hozirgi kunda esa bu ibora ko'p holatlarda, asosan sotuvchilar tomonidan xaridorlarga, aktyorlar tomonidan tomoshabinlarga, ofitsiantlar tomonidan esa mehmonlarga nisbatan, ularning "ko'nglini olish, yaxshi tassurot qildirish" ma'nosida ishlatiladi.<sup>2</sup> Semantik siljish shaxsiy-emotsional munosabatdan ijtimoiy ma'noga ham o'tganini ko'rsatadi.

2. *Das Zeitliche segnen*- bu diniy ibora bo'lib, XVII asrlarning urf-odatlariga oid ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi.<sup>3</sup> Tarixda "o'lim yaqinlashganda vaqtinchalik dunyo hayoti uchun duo qilish" ma'nosida qo'llanilgan.

Hozirgi kunda esa bu ibora metaforik ma'no siljishiga uchrab, asosan "vafot etmoq, hayot bilan vidolashmoq" shaklida "sterben"(o'lmoq) so'zining o'rniga muloyimlik va hurmat ma'nosida ishlatiladi.<sup>4</sup> Bu yerda o'zgarish ilohiy mazmundan dunyoviy holatlarga o'tganini ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Langenscheidt KG, Langenscheidt – Nemis tili lug'ati. Myunxen, 2010, S 575

<sup>2</sup> [www.FOCUS.de](http://www.FOCUS.de) Befuss, Tatjana. Bedeutung und Herkunft der Redewendung. 11.09.2023

<sup>3</sup> Duden. Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten, Mannheim 1998. S 830

<sup>4</sup> [www.kirche-im-hr.de](http://www.kirche-im-hr.de). Jelinek, Carmen. HR2 Zuspruch 29.01.2024



3. *Den Stab über jemanden brechen*<sup>5</sup> iborasi esa o'rta asrlardagi sud marosimlarida qo'llanilgan. So'zma-so'z ma'nosi "kimningdir ustidan tayoqni sindirmoq". Ya'ni sudya aybdorni o'limga yoki og'ir jazoga hukm qilganda, ramziy tarzda qo'lidagi tayoqni sindirgan. Bu esa shunday ma'noni anglatgan: "U endi hayotdan uzildi, uning taqdiri hal bo'ldi".

Bugungi kunda esa bu metaforik ibora sifatida "kimnidir qattiq tanqid qilish" yoki "kimdir haqida qat'iy salbiy hukm chiqarish" ma'nosida ishlatiladi. Bu yerda semantik ma'no torayib, diniydan ijtimoiyga siljiganligi ko'rinadi.

4. *Jemanden die Leviten lesen* - bu frazeologizm Tavrotidan (Tavrotning 3-kitobi Levitikus deyilgan) olingan bo'lib, VIII-IX asrlarda ruhoniylar gunohkor odamlarga Levitenlar o'qib berganlar, ya'ni ularga diniy tartib-qoidalarni eslatib, jiddiy tanqid qilib, ogohlantirgan.<sup>6</sup>

Hozirgi kunda diniy ma'nodan tashqari, kasbiy faoliyat, sport yoki kundalik holatlarda "*kimgadir tanbeh bermoq*" ma'nosida ham qo'llaniladi, ya'ni yillar davomida uning ma'nosi umumiydagi. Bu jarayon diniy muqaddas ma'nodan ijtimoiy-tarbiyaviy ma'noga o'tishining yorqin misolidir.

5. *Sein Licht unter den Scheffel stehen*- bu frazeologizm ham diniy manbalardan kelgan bo'lib, nemis mutafakkiri Martin Lyuterning Injil tarjimasida quyidagicha keltirilgan: "*Man zündet auch nicht ein Licht an und setzt es unter einen Leuchter; so leuchtet es denn allen, die im Haus sind*" (Mt 5, 15).<sup>7</sup> Ya'ni "nur sochuvchi chiroqni yashirmang" degan ruhiy-axloqiy tamoyilni bildirgan.

Hozirgi kunda esa lug'at kitoblarda "*istedodini yashirimoq, o'zini kamroq baholash, o'z qobiliyatini ko'rsatmaslik*"<sup>8</sup> ma'nolarida keladi. Semantik jihatdan bu diniy metaforadan ruhiy holatni ifodalovchi frazeologizmga aylangan.

Yuqoridagi arxaik frazeologizmlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, semantik torayish ko'proq diniy frazeologizmlarda ko'proq kuzatiladi. Ma'no kengayishi esa metaforik kuchi yuqori idiomalarda sodir bo'lgan. Kognitiv unutilish (semantik manbani bilmaslik) tildagi tarixiy qatlamni "so'nib borayotgan" frazeologizmlarga aylantiradi. Masalan, zamonaviy nemis tili foydalanuvchisi ko'p frazeologizmlarning asl manbasini bilmaydi, lekin uni faol ishlatadi.

Tilshunoslikdagi kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, arxaik frazeologizmlar o'z semantik tarkibini yo'qotgani sari ularning emotsional kuchi kamayadi. Shu bilan birga, texnologiya va internet asosidagi yangi metaforik birliklar ularning o'rnini bosa boshlaydi: "etwas googeln", "jemanden blockieren", "in die Story posten", "jemanden ghosten" va hakazo.

## XULOSA

Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, nemis tilida frazeologik tizimi doimiy o'zgarishda, eskirgan idiomalar tildan butunlay yo'qolib ketmaydi- ular yangi ma'no,

<sup>5</sup> [www.museum-joanneum.at](http://www.museum-joanneum.at). Fras, Anna, Blogserie: Das Einmals der Redewendungen, Teil 6 : 20 Museen und 1 Zoo in Graz und Steiermark. 06.06. 2014

<sup>6</sup> [www.merkur.de](http://www.merkur.de) Manquart, Oliver. Jemandem die Leviten lesen- Bedeutung, Ursprung und Geschichte der Redewendung. 15.08.2025

<sup>7</sup> [www.logo-buch.de](http://www.logo-buch.de) Christlichen Lexikon, Redewendungen

<sup>8</sup> Duden. Redewendungen und sprichwörtliche Redensarten, Mannheim 1998. S 453



konnotatsiya yoki stilistik qatlamda yashab qoladi. Bu holat tilning tirik organizm kabi doimiy yangilanib turishini isbotlaydi. Semantik evolyutsiya bu idiomalarni lingvomadaniy meros sifatida saqlab qoladi. Shu bois ularni o'rganish nafaqat frazeologik tizimni, balki nemis xalqining tarixiy tafakkurini anglashga yordam berganligi sababli, ular madaniyatshunoslik va kognitiv tarix nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

## References:

1. Langenscheidt Großwörterbuch: Deutsch als Fremdsprache. München: 2010
2. Duden. Redewendungen und sprichwörtlichen Redensarten. Mannheim: Dudenverlag 2013
3. Burger, Harald. Phraseologie: eine Einführung am Beispiel des Deutschen Berlin: Erich Schmidt Verlag 2010
4. Fleischer, Wolfgang. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Tübingen: Max Niemeyer Verlag 1997
5. Schemann, Hans. Deutsche Idiomatik. Stuttgart, Dresden: Ernst Klett Verlag. 1993
6. Befuss, Tatjana. Bedeutung und Herkunft der Redewendung. FOCUS Online 11.09.2023 [www.FOCUS.de](http://www.FOCUS.de) (murojaat qilingan sana: 20.10.25)
7. Jelinek, Carmen. "HR2 Zuspruch", Kirche in hr, 29.01.2024, [www.kirche-im-hr.de](http://www.kirche-im-hr.de) (murojaat qilingan sana: 03.10.25)
8. Fras, Anna. "Blogserie: Das Einmal der Redewendungen", 2014, [www.museum-joanneum.at](http://www.museum-joanneum.at) (murojaat qilingan sana: 12.10.25)
9. Manquart, Oliver. "Jemandem die Leviten lesen- Bedeutung, Ursprung und Geschichte der Redewendung", 15.08.2025, [www.merkur.de](http://www.merkur.de) (murojaat qilingan sana: 20.10.25)
10. Christlichen Lexikon, "Redewendungen" [www.logo-buch.de](http://www.logo-buch.de) (murojaat qilingan sana: 11.10.25)